

SHAXS PSIXOLOGIYASINING METODOLOGIK PRINSIPLARI**Asqarjonova Shodiya***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
pedagogika fakulteti 1- bosqich talabasi**Tel: +998 77 178 82 07*

Annotatsiya: Ushbu ishda shaxs psixologiyasini o‘rganishda asosiy metodologik prinsiplarga urg‘u berilgan. Determinizm, tizimlilik va rivojlanish prinsiplari orqali inson psixikasi va xulqatvorini tushunishning ilmiy yondashuvlari yoritiladi. Har bir prinsipning mohiyati, shaxs psixologiyasini tahlil qilishdagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu yondashuvlar shaxsning individualligini aniqlash, uning psixik rivojlanishini tushunishda muhim metodologik asos sifatida qaraladi. Mazkur mavzu shaxs psixologiyasini chuqur o‘rganish va amaliy psixologiya sohasida samarali qo‘llash uchun nazariy va metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: shaxs psixologiyasi, metodologik prinsiplari, determinizm, tizimlilik, rivojlanish, psixik jarayonlar, individuallik, sabab-oqibat bog‘liqligi, inson xulq-atvori, psixologik tahlil.

Kirish. Shaxs psixologiyasi insonning psixikasi, xulq-atvori, individualligi va uning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan psixologiya bo‘limidir. Ushbu sohani o‘rganishda ilmiy yondashuvlarni aniqlashda metodologik prinsiplar muhim ahamiyat kasb etadi. Metodologik prinsiplar shaxsni o‘rganishda asos sifatida xizmat qiladi va ilmiy tadqiqotlarni to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. Insonning xulq-atvori va psixologik holatlari tasodifiy emas, balki muayyan sabablar va qonuniyatlarga asoslangan. Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishda uning biologik, ijtimoiy va psixologik omillari inobatga olinadi. Masalan, muhit, tarbiya va ichki ehtiyojlar inson xulqiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs murakkab, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan tizim sifatida qaraladi. Shaxsning qobiliyatları, xarakteri, temperamenti, ehtiyojları va motivlari o‘zaro aloqador holda shakllanadi va rivojlanadi. Tizimlilik yondashuvi shaxsni o‘rganishda uning ichki va tashqi omillarini bir butun sifatida tahlil qilishni taqozo etadi. Shaxs doimiy rivojlanishda bo‘ladi. Rivojlanish jarayoni yosh davrlari, ijtimoiy tajriba va shaxsiy tajribalar asosida amalga oshadi. Bu prinsip insonning psixologik holatlari o‘zgaruvchan va dinamik ekanligini ko‘rsatadi. Har bir bosqichda shaxsning ehtiyojları, motivlari va dunyoqarashi o‘zgarib boradi. Shaxs o‘zining rivojlanishi va atrof-muhitni o‘zgartirishda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Inson o‘z xulq-atvori ongli ravishda boshqaradi va o‘z maqsadlari tomon intiladi. Shaxsning rivojlanishi tarixiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas

bog'liq. Shaxsni tushunishda uning yashab turgan jamiyati, madaniyati va davrining ta'siri o'r ganiladi. Shaxs psixologiyasining metodologik prinsiplari inson psixikasini tizimli, ilmiy va chuqur tushunish imkonini beradi. Determinizm, tizimlilik, rivojlanish, faollik va tarixiylik prinsiplari shaxsni o'r ganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu prinsiplar yordamida insonning individualligi, xulq-atvori va rivojlanish qonuniyatlari to'g'ri aniqlanadi va amaliy faoliyatda qo'llaniladi. Shaxs psixologiyasining predmetini tahlil qilishda qator masalalarni hal qilish zarur. Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ, shaxs, individuallik tushunchalari orqali aks ettiriladi. Individ sifatida yorug'dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy - tarixiy xususiyatga egadir. Shaxsning eng muhim xususiyatlari jihatlaridan biri - bu uning individualligidir, ya'ni yakkahlligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tatkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmon xususiyatlar yig'indisi, iqtidori, har shakldagi reaksiyalar, qobiliyatları va shu kabilalar kiradi. Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog'liq degan nazariyaning namoyondalari bo'l mish hozirgi zamon uzoq chet el psixologlari oqibati natijasida shaxsning tuzilishini o'sha ikkita asosiy omillarga, ya'ni biologik va ijtimoiy voqeliklarning ta'siriga bog'liq bo'l gan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar. Shaxs psixologiyasi insonning ichki dunyosi, individualligi, psixik jarayonlari va xulq-atvori qonuniyatlarini o'r ganadigan sohadir. Ushbu yo'nalishda shaxsni tushunish va ilmiy tadqiqotlar olib borishda bir qator prinsiplar asos sifatida qabul qilingan. Psixologik tadqiqotlar insonning psixik jarayonlari, shaxsiy xususiyatlari va xulq-atvorini ilmiy asosda o'r ganish uchun turli metodlar orqali olib boriladi. Tadqiqot metodlari ma'lumot toplash, tahlil qilish va xulosalar chiqarishga yordam beradi. Psixik jarayonlar va xulq-atvorni maxsus yaratilgan sharoitda o'r ganishdir. Tadqiqotchi o'zgaruvchan omillarni nazorat qiladi va natijalarni o'lchaydi. Tadqiqot ishtirokchilariga savollar berish orqali ularning fikrlari, hissiyotlari va munosabatlarini aniqlash. Shaxsiy xususiyatlar, intellekt, bilim darajasi va boshqa psixologik ko'rsatkichlarni aniqlash uchun maxsus testlardan foydalananiladi. Shaxs nazariyalari insonning psixik tuzilishi, xulq-atvori, motivlari va rivojlanishini tushuntirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlardir. Bunday nazariyalarni ijobiy baholash uchun ma'lum mezonlar ishlab chiqilgan. Ushbu mezonlar yordamida nazariyaning ilmiyligi, amaliy ahamiyati va samaradorligi aniqlanadi. Shaxs nazariyasi ilmiy ma'lumotlar, eksperimental natijalar va kuzatishlarga asoslangan bo'lishi kerak. Z. Freydning psixoanalitik nazariyasi insonning ongsiz jarayonlarini o'r ganishda katta hissa qo'shgan, biroq ba'zi gipotezalari ilmiy jihatdan tasdiqlanmagan. Nazariya o'z ichida mantiqiy, izchil va tizimli bo'lishi kerak. Uning asosiy tushunchalari bir-biri bilan bog'liq holda tushuntirilishi zarur. Maslouning "Ehtiyojlar ierarxiyasi" nazariyasi

shaxsning motivlarini tizimli ravishda bosqichmabosqich tushuntiradi. Nazariya kundalik hayotda, ta'lim, psixoterapiya, kadrlar tanlash va tarbiya kabi sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lishi kerak. K.Rojersning gumanistik nazariyasi psixoterapiyada insonning o'zini anglashiga yordam beruvchi amaliy yondashuv sifatida qo'llaniladi. Shaxs nazariyalarini baholashda uning ilmiyligi, amaliy ahamiyati, tizimlilik, prognozlash imkoniyati va empirik tekshirish imkoniyati kabi mezonlar asosiy o'rinni tutadi. Nazariya qanchalik bu mezonlarga javob bersa, u shunchalik ishonchli va foydali hisoblanadi. Shaxs psixologiyasida turli nazariyalarning o'ziga xos yondashuvlari mavjud bo'lib, ularning har biri inson psixikasini tushunishga muayyan hissa qo'shadi. Shaxsni o'rganish insonning individual xususiyatlari, motivlari, qobiliyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash uchun olib boriladi. Bunda turli ilmiy metodlar, usullar va yondashuvlar qo'llaniladi. Shaxsni o'rganish jarayonida shaxsiy xususiyatlarni tahlil qilish, taqqoslash va o'zaro farqlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsni o'rganish va qiyoslash metodlari psixologiyada muhim o'rinni tutadi. Bu metodlar shaxsning individual xususiyatlarini aniqlash, shaxslararo farqlarni tahlil qilish va umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga yordam beradi. Har bir metod tadqiqotning maqsadi, sharoiti va tadqiq qilinayotgan shaxslar guruhiga qarab tanlanadi. Qiyoslash esa shaxsni turli jihatlardan chuqur o'rganish imkonini beradi. Determinism – bu falsafiy qarash bo'lib, unga ko'ra tabiat va jamiyatdagi har qanday hodisa oldindan mavjud bo'lган sabablarning ta'siri tufayli sodir bo'ladi. Determinizm tushunchasi dunyodagi barcha hodisalar o'zaro sababiy bog'liqlikda bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Ya'ni har qanday voqeя va holatning yuzaga kelishi oldindan belgilangan sabablarning natijasidir. Deterministik qarashlar fizika, biologiya, sotsiologiya kabi fanlarda ham namoyon bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev. E.G."Umumiyy psixologiya", "T.O'qituvchi "2010.
2. Myers D.G.Psychology. Ninth Edition.-Worth Publishers,2010.
3. Клонингер С. Теория личности: познание человека. - СПб. Питер 2003. - 720 с.